

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 104 (1165), 2024-yil 29-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA XALQLARI MANFAATIGA XIZMAT QILADIGAN TARIXIY TASHRIF

Samarali O‘zbekiston — Rossiya sammiti yakunlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning davlat tashrifi doirasida qator qo‘shma tadbirlar bo‘lib o‘tdi.

26-may kuni davlat rahbarlari birgalikda “Yangi O‘zbekiston” majmuasiga tashrif buyurdi, Rossiya rahbari Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

27-may kuni tor va kengaytirilgan tarkibda oliy darajadagi muzokaralar bo‘lib o‘tdi, ular davomida Prezidentlar ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni atroflicha muhokama qildilar, delegatsiyalar a‘zolarining asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha hisobotlarini tingladilar, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Davlat rahbarlarining Qo‘shma bayonoti imzolandi, ikki do‘st mamlakat xalqlari manfaatiga xizmat qiladigan, o‘zaro hamkorligida yangi sahifa ochadigan hukumatlararo va idoralararo hujjatlar almashildi.

Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Vladimir Putin G‘alaba bog‘iga tashrif buyurib, “Matonat madhiyasi” monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi va O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaga qo‘shgan hissasi haqida hikoya qiluvchi muzey bilan tanishdi.

O‘sha kuni Prezidentlar raisligida O‘zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi, unda hududlararo muloqotni yanada mustahkamlash va uni yangi amaliy mazmun bilan boyitish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, Rossiya Prezidentining ushbu tashrifini haqli ravishda tarixiy deb atash mumkin. Bu tashrif mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarida yangi bosqichni boshlab beradi.

Tashrif tadbirlari yakunlangach, Toshkent xalqaro aeroportida Prezident Vladimir Putinni Prezident Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo‘ydi.

O‘za

Biz va dunyo

UZOQ MUDDATLI HAMKORLIK O‘ZARO MANFAATLI ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHDA HAL QILUVCHI ROL O‘YNAYDI

Xorijiy ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralar vakillari Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning O‘zbekistonga davlat tashrifini sharhlashda davom etmoqda.



Vladimir KATENEV, Sankt-Peterburg shahri Savdo-sanoat palatasi prezidenti:

— Prezidentlar Vladimir Putin va Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy munosabatlari juda samimiy. Vladimir Putinning prezidentlikka qayta saylangandan keyingi uchinchi xorijiy safari aynan O‘zbekistonga bo‘ldi. Tashrif davlat tashrifi maqomiga ega bo‘lib, bu eng oliy shakldir.

Tashrif doirasida Toshkentda o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi 20 dan ortiq bitim, memorandum va boshqa hujjatlar imzolandi.

Ushbu sa‘y-harakatlar natijasida Sankt-Peterburg va O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalar yanada kuchliroq rivojlanadi.

Davomi 2-beta

Investitsiya



CHEKKA TUMANDAN ROSSIYA BOZORI SARI

2

Islohotlar samarasi

MAHALLA

HAMJIHATLIK, BIRDAMLIK, UMID VA ISHONCH MASKANI



Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi Mustaqillik mahallasida yashovchi Hazrat bobo Pirriyev yoshi qariyb 80 ga yaqinlashgan bo‘lsa-da, bobomeros kasbi — chorvachilikni kanda qilmaydi. Haligacha sigirning yuvosh va sersuti, novvosning tez yetilib, ro‘zg‘orga yaxshi daromad keltiradiganini tanlash borasida qishloqda otaxonning oldiga tushadigan yo‘q hisobi. Shu sababli bozordan qoramol sotib olishda ko‘pchilik uning maslahatini olish, imkoni bo‘lsa, bozorga birga borishga harakat qiladi. Hazrat bobo oldi-sotdida bironing haqiga xiyonat qilmas, o‘zgaga ham haqini yedirmaydi.

Nima bo‘ldi-yu, oxirgi savdosi pishmay qoldi: qo‘shni qishloqlik fermer yigit otaning boqilgan sigirini 1 oyga pulini berish sharti bilan olib ketdi, lekin oradan 3 oy o‘tsa-da, qorasi ko‘rinmadi. Shunday kunlarning birida Hazrat bobo “ish bilan bo‘lib esidan chiqqan bo‘lsa, bir eslatib, yig‘ib qo‘ygan bo‘lsa, pulni

olib kelaman”, deb qo‘shni qishloqqa otandi. Biroq uni uyidan topolmadi, qo‘ng‘iroqlariga ham javob bermadi. Qo‘ni-qo‘shni, tanish-bilishlar orqali uyiga bir necha bor xabar yo‘lladi, natija bo‘lmadi.

O‘ylay-oylay oilasidagilarga maslahat soldi: “Melisaga bering”, dedi kampiri. O‘g‘li

sudga berishni maslahat berdi. Umri bino bo‘lib bu tizimga deyarli ishi tushmagan Hazrat bobo bir seskanib tushdi: “oddiy oldi-berdini deb sudma-sud yuramanmi, boshqa yo‘li yo‘qmikan?”, deya ichi zil ketdi. Shu lahzalarda mahalla hayotiga oid turli masalalarda tez-tez yo‘qlab turadigan oqsqol

esiga tushdi. Mahalla raisi hali yosh bo‘lishiga qaramay, ko‘p muammoli holatlarda yoshi ulug‘lar bilan kengashib yo‘l tutganidan chigal masalalarga oqlona yechim topib keladi. Shu bois, mahallada hurmat-e‘tibori baland.

Davomi 3-beta

Taraqqiyot odimi

YUQORI REYTINGDAGI TADBIRKOR imtiyozlardan foydalana boshladi

Oxirgi vaqtlarda tadbirkorlar reytingi haqida ko‘p eshityapmiz. Biznes vakillarining aksariyati shu reytingning yuqori pog‘onasidan joy egallashga intilyapti. Bu ularga qo‘shimcha qulaylik, imtiyozlar berishini ta’kidlamog‘da. Boisi, yurtimizda joriy yil 1-fevraldan tatbiq etilgan tadbirkorlarning barqarorlik reytingi ishbilamon doira vakillarining faoliyatini baholabgina qolmay, ularni qo‘shimcha rag‘batlantirishni nazarda tutadi.



Davomi 4-beta

Faxr

Botir QOBILOV: “XAYOLAN HAR KUNI YURTINDAMAN!”

Hayotda, kasbda muvaffaqiyatga erishish oson emas. Xorijiy davlatga borib hammasini noldan boshlash esa o‘n karra mashaqqatli. Ammo bilim, mehnat va intilish, kasbga muhabbat insonni dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, o‘z maqsadi tomon olib boradi.

Yurtdoshimiz, yosh iqtisodchi Botir Qobilov ham ilmiy faoliyatini xorijda davom ettirish maqsadida 2014-yili AQSHga yo‘l olgandi. Hozirgacha ana shu ilm yo‘lidan og‘ishmay, bilim olish, izlanishda davom etmoqda. Yaqinda jahonning eng mashhur oliygohlaridan biri, nufuzli Garvard universiteti doktoranti maqomiga erishdi. Shu tariqa Botir Qobilov ushbu universitetning Garvard biznes maktabida doktorlik ishini yoqlagan birinchi o‘zbekistonlik bo‘ldi.

Xushxabarni eshitganimiz hamon yosh iqtisodchi bilan internet orqali bog‘landik. Ilmlilar bilan gaplashish doim maroqli. Ular so‘zni isrof qilmaydi, kerakli gapni topib qo‘llaydi. Manmanlikdan xoli, kamtar bo‘ladi. Bunday insonlar uchun eng nufuzli oliygohlardan birida doktorlik qilish va bu borada mamlakatda birinchilardan bo‘lish qanchalik faxrli ekani qiziq, albatta.

Davomi 5-beta



Majnunining bo‘lay,
Vatan!

6

